# Navoiy viloyatida umumiy o‘rta ta’lim tizimi

## *(2019/2020 o‘quv yili boshiga)*

Umumiy o‘rta ta’lim tizimi, boshlang‘ich (I-IV sinflar), tayanch o‘rta (V-IX sinflar) hamda umumiy o‘rta ta’lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo‘lib, kunduzgi ta’lim shaklida faoliyat yuritadi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan ko‘plab ota-onalar, pedagoglar, yoshlar hamda keng jamoatchilik takliflarini o‘rgangan holda, yurtimizda 11 yillik o‘rta ta’lim tizimi qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25- yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq 2018-2019 o‘quv yilidan boshlab majburiy umumiy o‘rta ta’lim tizimi, uzluksiz ravishda 11 yillik ta’lim negizida amalga oshirilmoqda. Navoiy viloyatida 2019/2020 o‘quv yili boshiga jami umumta’lim muassasalari soni 367 tani tashkil etdi. Umumta’lim muassasalari soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 9 taga ko‘paydi.

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, *birlikda***



# Umumta’lim muassasalarining shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



Navoiy viloyatida 2019/2020 o‘quv yili boshiga jami umumta’lim muassasalari 367 tani tashkil etib, ulardan 250 tasi (68 %) qishloq joylarida, 117 tasi esa (32 %) shahar joylarda joylashgan.

| | **Muassasalar soni,** ***birlik*** | **shundan:** | |
|---|---|---|---|
| | | **shahar joylarda** | **qishloq joylarda** |
| **Navoiy viloyati** | **367** | **117** | **250** |
| *shaharlar:* | | | |
| Navoiy | 22 | 22 | - |
| Zarafshon | 12 | 12 | - |
| *tumanlar:* | | | |
| Konimex | 38 | 9 | 29 |
| Karmana | 33 | 11 | 22 |
| Qiziltepa | 44 | 14 | 30 |
| Navbahor | 37 | 1 | 36 |
| Nurota | 57 | 22 | 35 |
| Tomdi | 17 | 2 | 15 |
| Uchquduq | 19 | 9 | 10 |
| Xatirchi | 88 | 15 | 73 |







## Umumta’lim muassasalarining turlariga ko‘ra taqsimlanishi

**Umumta’lim muassasalari soni jami 367 ta, shundan:**

**364 ta umumiy o‘rta** **3 ta boshqa**



O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim muassasalari uch turga bo‘linadi: bular boshlang‘ich, umumiy o‘rta va boshqalar hisoblanadi. 2019/2020 o‘quv yili boshiga kelib jami 367 ta umumta’lim muassasalarining 364 tasini umumiy o‘rta ta’lim maktablari va 3 tasini boshqa muassasalar tashkil etdi. Bugungi kunda umumta’lim muassasalarida jami 179,4 ming nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda. Shundan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 178,6 ming va boshqa muassasalarda 0,6 ming nafar o‘quvchilar tahsil olmoqda.

## Umumta’lim muassasalarini hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, *birlikda*

| | Muassasalar soni | shundan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | boshlang‘ich | umumiy o‘rta | boshqalar |
| **Navoiy viloyati** | **367** | **-** | **364** | **3** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Navoiy | 22 | - | 21 | 1 |
| Zarafshon | 12 | - | 12 | - |
| *tumanlar:* | | | | |
| Konimex | 38 | - | 38 | - |
| Karmana | 33 | - | 32 | 1 |
| Qiziltepa | 44 | - | 43 | 1 |
| Navbahor | 37 | - | 37 | - |
| Nurota | 57 | - | 57 | - |
| Tomdi | 17 | - | 17 | - |
| Uchquduq | 19 | - | 19 | - |
| Xatirchi | 88 | - | 88 | - |

## Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi [1)]

### Smenalar bo'yicha mashg'ulot olib boradigan muassasalar ulushi, % da




2019/2020 o'quv yili boshiga, barcha ta'lim muassasalaridan bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 98 ta (26,9 %), ikki smenada 266 ta (73,1 %) ni tashkil etadi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 116,4 ming kishi (65,1 %), ikki smenada 62,2 ming kishi (34,9 %) tahsil olmoqda.

## Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi hududlar kesimida, *birlikda*

| | Navoiy viloyati | Navoiy sh. | Zarafshon sh. | Konimex t. | Karmana t. | Qiziltepa t. | Navbahor t. | Nurota t. | Tomdi t. | Uchquduq t. | Xatirchi t. |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Jami muassasalar, *birlik*** | **364** | **21** | **12** | **38** | **32** | **43** | **37** | **57** | **17** | **19** | **88** |
| *ulardan mashg'ulot olib boradigan:* | | | | | | | | | | | |
| bir smenada | 98 | 3 | - | 5 | 5 | 21 | 7 | 13 | 15 | 13 | 16 |
| ikki smenada | 266 | 18 | 12 | 33 | 27 | 22 | 30 | 44 | 2 | 6 | 72 |

[1)] *Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablaridan tashqari*

## Umumta’lim muassasalarida sinflar bo‘yicha o‘quvchilar soni, *ming kishi*

## *(2019/2020 o‘quv yili boshiga)*

| | O‘quvchilar soni jami | shundan: | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 1-sinf | 2-sinf | 3-sinf | 4-sinf | 5-sinf | 6-sinf | 7-sinf | 8-sinf | 9-sinf | 10-sinf | 11-sinf |
| **Navoiy viloyati** | **178,6** | **17,6** | **17,5** | **17,9** | **17,6** | **17,3** | **17,7** | **16,3** | **15,2** | **14,8** | **13,4** | **13,3** |
| *shaharlar:* | | | | | | | | | | | | |
| Navoiy | 32,8 | 3,3 | 3,2 | 3,4 | 3,2 | 3,2 | 3,1 | 3,0 | 2,7 | 2,6 | 2,5 | 2,6 |
| Zarafshon | 15,7 | 1,7 | 1,6 | 1,6 | 1,7 | 1,7 | 1,5 | 1,4 | 1,3 | 1,2 | 1,0 | 1,0 |
| *tumanlar:* | | | | | | | | | | | | |
| Konimex | 7,1 | 0,7 | 0,8 | 0,8 | 0,7 | 0,7 | 0,6 | 0,6 | 0,6 | 0,6 | 0,5 | 0,4 |
| Karmana | 22,4 | 2,3 | 2,3 | 2,2 | 2,2 | 2,1 | 2,2 | 1,9 | 1,9 | 1,9 | 1,7 | 1,6 |
| Qiziltepa | 22,9 | 2,2 | 2,2 | 2,5 | 2,2 | 2,2 | 2,2 | 2,2 | 2,1 | 1,9 | 1,6 | 1,6 |
| Navbahor | 18,1 | 1,6 | 1,8 | 1,8 | 1,8 | 1,7 | 2,1 | 1,5 | 1,5 | 1,6 | 1,4 | 1,4 |
| Nurota | 16,9 | 1,5 | 1,5 | 1,5 | 1,7 | 1,7 | 1,8 | 1,6 | 1,6 | 1,5 | 1,3 | 1,2 |
| Tomdi | 1,8 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,1 |
| Uchquduq | 7,6 | 0,9 | 0,8 | 0,8 | 0,8 | 0,7 | 0,8 | 0,7 | 0,6 | 0,5 | 0,5 | 0,5 |
| Xatirchi | 33,3 | 3,1 | 3,1 | 3,0 | 3,2 | 3,0 | 3,2 | 3,2 | 2,8 | 3,0 | 2,8 | 2,9 |



2019/2020 o‘quv yili boshiga, umumta’lim muassasalarining birinchi sinfiga qabul qilingan o‘quvchilar soni bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega hudud Navoiy shahri va Xatirchi tumanlarida qayd etilgan bo‘lsa, eng kam ko‘rsatkich Tomdi, Konimex va Uchquduq tumanlarida kuzatilgan.

## Umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar sonini yoshlari bo‘yicha taqsimlanishi, *ming kishi*

### *(2019/2020 o‘quv yili boshiga)*

| | O‘quvchilar soni jami | Shu jumladan: | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 6 yosh | 7 yosh | 8 yosh | 9 yosh | 10 yosh | 11 yosh | 12 yosh | 13 yosh | 14 yosh | 15 yosh | 16 yosh va undan katta |
| **Navoiy viloyati** | **178,6** | **1,0** | **17,5** | **17,4** | **17,7** | **17,5** | **17,4** | **17,6** | **16,4** | **15,2** | **14,7** | **26,2** |
| *shaharlar:* | | | | | | | | | | | | |
| Navoiy | 32,8 | 0,4 | 3,3 | 3,2 | 3,4 | 3,1 | 3,2 | 3,1 | 3,0 | 2,7 | 2,6 | 4,8 |
| Zarafshon | 15,7 | 0,1 | 1,7 | 1,6 | 1,6 | 1,7 | 1,7 | 1,5 | 1,4 | 1,3 | 1,2 | 1,9 |
| *tumanlar:* | | | | | | | | | | | | |
| Konimex | 7,1 | 0,0 | 0,7 | 0,7 | 0,8 | 0,8 | 0,7 | 0,6 | 0,6 | 0,6 | 0,6 | 1,0 |
| Karmana | 22,4 | - | 2,3 | 2,3 | 2,2 | 2,1 | 2,1 | 2,2 | 2,0 | 1,9 | 1,9 | 3,3 |
| Qiziltepa | 22,9 | 0,2 | 2,2 | 2,2 | 2,4 | 2,3 | 2,1 | 2,2 | 2,2 | 2,0 | 1,9 | 3,2 |
| Navbahor | 18,1 | 0,1 | 1,6 | 1,8 | 1,8 | 1,8 | 1,8 | 2,0 | 1,5 | 1,5 | 1,5 | 2,7 |
| Nurota | 16,9 | 0,03 | 1,5 | 1,5 | 1,5 | 1,7 | 1,7 | 1,8 | 1,6 | 1,6 | 1,5 | 2,6 |
| Tomdi | 1,8 | 0,02 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,1 | 0,1 | 0,1 | 0,2 |
| Uchquduq | 7,6 | 0,04 | 0,9 | 0,8 | 0,8 | 0,8 | 0,8 | 0,8 | 0,7 | 0,6 | 0,5 | 0,9 |
| Xatirchi | 33,3 | 0,2 | 3,1 | 3,0 | 3,0 | 3,1 | 3,1 | 3,1 | 3,3 | 2,8 | 3,0 | 5,6 |

2019/2020 o‘quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maktablar va sinf o‘quvchilarsiz) umumta’lim muassasalarida tahsil olayotgan 6 yoshli o‘quvchilar soni 1 068 nafarni tashkil etgan.



## Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da

*(2019/2020 o'quv yili boshiga)*




2019/2020 o'quv yili boshiga, Navoiy viloyati bo'yicha jami umumta'lim muassasalarida 178,6 ming nafar o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz) ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 91,8 ming nafari (51,4 %) o'g'il bolalar, 86,8 ming nafari (48,6 %) qiz bolalarni tashkil etadi.

## Umumta'lim muassasalarida 11-sinfni bitirgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, *kishi*
## *(2019/2020 o'quv yili boshiga)*




2019/2020 o'quv yili boshiga Navoiy viloyatida umumta'lim muassasalarining 11-sinfni tamomlaganlar soni 10 218 nafarni tashkil etgan.



## Umumta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning ma’lumoti bo‘yicha taqsimlanishi[2)], % da






| | Oliy ma’lumotli o‘qituvchilar-ning jami o‘qituvchilar sonidagi ulushi, % da | O‘rta maxsus ma’lumotli o‘qituvchilar-ning jami o‘qituvchilar sonidagi ulushi, % da |
|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **90,9** | **9,1** |
| *shaharlar:* | | |
| Navoiy | 97,5 | 2,5 |
| Zarafshon | 92,0 | 8,0 |
| *tumanlar:* | | |
| Konimex | 92,8 | 7,2 |
| Karmana | 90,7 | 9,3 |
| Qiziltepa | 95,0 | 5,0 |
| Navbahor | 88,7 | 11,3 |
| Nurota | 89,4 | 10,6 |
| Tomdi | 83,6 | 16,4 |
| Uchquduq | 90,4 | 9,6 |
| Xatirchi | 85,7 | 14,3 |

2019/2020 o‘quv yili boshiga jami o‘qituvchilar 20 183 nafarni tashkil etib, ulardan 51 foizi qishloq maktablarida, 49 foizi esa shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. Navoiy viloyatida bitta o‘qituvchiga o‘rtacha 9 nafar o‘quvchi to‘g’ri keladi.



[2)] *o‘rindoshlarsiz*

## Umumta’lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da












2019/2020 o‘quv yili boshiga, umumta’lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo‘yicha taqsimlanishida eng yuqori ko‘rsatkich ona tili va adabiyoti, ingliz tili, matematika, jismoniy tarbiya, rus tili va adabiyoti fanlarida kuzatildi, o‘quvchilar sonining ushbu fanlardagi ulushi boshqa fanlar o‘qituvchilariga nisbatan yuqori ulushga ega.

***Ma’lumot uchun***: *umumta’lim muassasalari pedagoglarining fanlar bo‘yicha taqsimlanishida, fanlar bo‘yicha ta’lim bermaydigan rahbarlar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini qo‘shmagan holda.*

# Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, *kishi*




2019/2020 o'quv yili boshida umumta'lim muassasalarida jami o'qituvchilar soni 20 183 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etdi, Navoiy viloyatida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 9 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Shulardan hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Tomdi tumanida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 5 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.



## Umumta’lim muassasalarida xorijiy tillar

O‘zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar bilan har tomonlama manfaatli o‘zaro hamkorligining yangi bosqichga ko‘tarilishi jarayonida istiqbolli yoshlarni tayyorlash, yosh avlodga xorijiy tillarni, jumladan nemis va fransuz tillarini chuqur o‘rganishlari uchun shart sharoitlar yaratish va ularning intelektual salohiyatini oshirish, xalqaro maydonda yurtimizning nufuzini yanada yuksaltirishga qodir bo‘lgan avlodni tarbiyalash asosiy maqsadimizdir. 2019/2020 o‘quv yili boshida Navoiy viloyatida 348 ta umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar xorijiy tillardan tahsil oladi. Shulardan, 316 tasida ingliz tili, 55 tasida nemis tili, 40 tasida fransuz tillidan saboq oladi.

### Xorijiy tillarini o‘rganish bo‘yicha umumta’lim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, *birlikda*

*(2019/2020 o‘quv yili boshiga)*

| | Umumta’lim muassasalar soni | Ulardan ta’lim olib boriladigan chet tillari bo‘yicha: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | ingliz | nemis | fransuz |
| Navoiy viloyati | **348** | **316** | **55** | **40** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Navoiy | 21 | 21 | 3 | 1 |
| Zarafshon | 12 | 12 | 1 | 1 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Konimex | 33 | 32 | 1 | - |
| Karmana | 32 | 32 | 2 | 3 |
| Qiziltepa | 43 | 41 | 5 | 4 |
| Navbahor | 37 | 36 | 4 | 7 |
| Nurota | 57 | 42 | 9 | 11 |
| Tomdi | 10 | 9 | - | 1 |
| Uchquduq | 15 | 15 | 1 | 1 |
| Xatirchi | 88 | 76 | 29 | 11 |

## Xorijiy tillarini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarini hududlar kesimida taqsimlanishi, *kishi*

*(2019/2020 o‘quv yili boshiga)*

| | Jami | Ulardan ta’lim olib boriladigan chet tillari bo‘yicha: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | ingliz | nemis | fransuz |
| Navoiy viloyati | **177 602** | **159 151** | **9 243** | **9 208** |
| *shaharlar:* | | | | |
| Navoiy | 32 755 | 32 430 | 169 | 156 |
| Zarafshon | 15 699 | 15 527 | 100 | 72 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Konimex | 6 550 | 6 351 | 199 | - |
| Karmana | 22 366 | 22 136 | 98 | 132 |
| Qiziltepa | 22 939 | 20 838 | 430 | 1 671 |
| Navbahor | 18 207 | 15 683 | 357 | 2 167 |
| Nurota | 16 946 | 13 358 | 1 604 | 1 984 |
| Tomdi | 1 229 | 1 075 | - | 154 |
| Uchquduq | 7 572 | 7 344 | 80 | 148 |
| Xatirchi | 33 339 | 24 409 | 6 206 | 2 724 |

2019/2020 o‘quv yili boshida viloyatimizda 348 ta umumta’lim muassasalarida (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar maktablaridan tashqari) 177,6 ming nafar o‘quvchi xorijiy tillaridan tahsil oladi. Shundan, 159,2 ming nafari (89,6 %) ingliz tili, 9,2 ming nafari (5,2 %) nemis tili, 9,2 ming nafari (5,2 %) fransuz tillarni o‘rganishmoqda.

## Ingliz tilini o‘rganish bo‘yicha, umumta’lim muassasalari o‘quvchilarining hududlar kesimida taqsimlanishi, *ming nafar*

*(2019/2020 o‘quv yili boshiga)*




Viloyatimizning umumta’lim muassasalarida 159,2 ming nafar o‘quvchi ingliz tilini o‘rganmoqda. Jumladan, Navoiy shahrida 32,4 ming nafar (20,4%), Xatirchi tumanida 24,4 ming nafar (15,3%) va Qiziltepa tumanida 20,8 ming nafar (13,1%) o‘quvchi ingliz tilini o‘rganmoqda.

## Umumta'lim muassasalarining axborot-kommunikasiya texnologiyalari bilan ta'minlanganligi bo'yicha dinamikasi, *birlikda* *(o'quv yili boshiga)*

| | 2016/2017 | 2017/2018 | 2018/2019 | 2019/2020 |
|---|---|---|---|---|
| Kompyuter sinflariga ega bo'lgan muassasalar soni | 346 | 348 | 349 | 359 |
| Umumiy muassasalar soniga nisbatan % da | 97,7 | 97,7 | 97,5 | 97,8 |
| Kompyuter sinflari soni | 471 | 460 | 463 | 475 |
| ularda kompyuterlar soni, ming dona | 6,9 | 6,9 | 7,0 | 7,1 |
| Har 1000 o'quvchiga to'g'ri keladigan kompyuterlar soni | 49 | 44 | 41 | 40 |
| "ZiyoNet"ga ulanish imkoniyati bo'lgan muassasalar soni | 320 | 326 | 321 | 329 |

Navoiy viloyatida 2019/2020 o'quv yili boshiga kompyuter sinflariga ega bo'lgan umumta'lim muassasalar soni 359 tani tashkil etgan bo'lib, bu jami umumta'lim muassasalarning 97,8 %ini tashkil etadi. Ular 7,1 ming dona kompyuterlar bilan ta'minlangan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115 donaga, ya'ni (1,6 %)ga oshgan. 2016/2017 o'quv yili boshida har ming o'quvchiga 49 donadan kompyuterlar soni to'g'ri kelgan bo'lsa, joriy yilda 40 donadan to'g'ri kelgan.

***Navoiy viloyati statistika boshqarmasi***
***Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi***

***Tel.: 79-223-54-98***